

Tarixiy shaxslarning qonun ustuvorligi sohasida amalga oshirilgan faoliyatlari va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri.

Rahmonqulov Dostonjon Hamdamovich
IQT 122-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada qonunlarning tarixiy yaratilish jarayoni va ularning davlat boshqaruvida tutgan o'рни, Xamurapi va Amir Temurdek sarkardalar davlatida adolatni qanday o'rnatganligi, mustaqillikka erishganimizning ilk yillaridagi qonun islohotlari ilk marta konstitutsiyamizning qabul qilinishi va global, ichki va umumbashariy muammolarning vujudga kelishi va yangi tahrirdagi qonunning yaratilishi va unda amalga oshirilgan islohotlar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Xamurapi qonunlari, Amir Temur tuzliklari, qonun islohotlari, geosiyosiy vaziyat, konstitutsiya, yangi tahrirdagi konstitutsiya.

Jamiyatdagi har bir fuqaroning baxtli, tinch-totuv yashashi, kamol topishi, yashashi va uning ulg'ayishi uchun birinchi galdagi ustuvor narsalardan biri bu shubhasiz qonun ustuvorligidir. Ibtidoiy tuzumdan to shu bugungi kunga qadar odamlar, oila, urug', qabila, qirollik, davlatchilik ko'rinishida yashab kelishmoqda, ana shu davlatchilikda tinchlikni o'rnatish uchun odamlar barcha amal qilish kerak qoidalarni ishlab chiqishgan va bu qoidalarga hamma amal qilishi majburiy etib belgilangan. Agarda kimda kim bo'ysunmaydigan bo'lsa yoki bo'ysunishni istamaydigan bo'lsa juda qattiq jazolagan bu jazolarning hamma uchun umumiy bo'lishi, ya'ni o'zgartirilmasligi uchun qoya toshlarga, aholi manzillari o'rtasiga o'rnatilgan maxsus tosh ustumlarga o'yib yozilgan misol uchun Mil. avv. 1792 – 1750-yillarda Bobil davlatini boshqargan Xamurapi o'zing davlatida jinoyatchilikni kamaytirish, aholi farovonligini oshirish uchun o'zining qonunlarini yaratadi (akkad tilida: Inu Anum sirum)1. Bu qonunda quyudagi namunalar keltirilgan:

1-modda. Agar biror kishi qasamyod bilan biron kishining qotillik aybini unga yuklagan, lekin uni isbotlamagan bo'lsa, u holda uning ayblovchisi o'ldirilishi kerak.

2-modda. Agar biror kishi jodugarlik aybini odamga tashlagan va uni isbotlamagan bo'lsa, unda jodugarlik ayblovi qo'yilgan kishi Daryo xudosiga borib, daryoga cho'mishi kerak, agar daryo uni ushlasa, uning ayblovchisi uning uyini olib qo'yishi mumkin. Agar daryo bu odamni poklasa va u zararsiz qolsa, unga sehrgarlikni ayblagan odam o'ldirilishi kerak va daryoga cho'mgan kishi ayblovchining uyini olishi mumkin.

3-modda. Agar biror kishi jinoyat to'g'risida guvohlik berish uchun sudga kelgan bo'lsa va u aytgan so'z isbotlanmagan bo'lsa va bu ish hayot masalasi bo'lsa, unda bu odam o'ldirilishi kerak.

6-modda. Agar biror kishi xudo yoki saroy mulkini o'g'irlagan bo'lsa, u holda u o'ldirilishi kerak; shuningdek, o'g'irlangan narsalarni qo'lidan olgan kishi o'ldirilishi kerak.

59-modda. Agar odam bog' egasidan xabardor bo'lmasdan odamning bog'idagi daraxtni kesgan bo'lsa, unda u kumushning 1/2 qismini tortishi kerak.

64-modda. Agar biror kishi o'z bog'ini bog'bonga yetishtirish uchun beradigan bo'lsa, u holda bog'bon bog'ni ushlab turganda, daromadning 2/3 qismini bog' egasiga berishi kerak va u 1/3

1 To'xtasinov Mira'zam Abdujabborov g'li /"XAMMURAPI QONUNLARI": <https://doi.org/10.37547/iqro-volume04-issue01-44>

qismini olishi mumkin.² Yana shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, bu qonun davrning eng adolatlisi, odamlarning farovonligini ta'minlagan deya e'tirof etilgan.

Yurtimiz zaminida yashab ulkan ham madaniy ham ma'naviy boylik ulashib ketgan buyuk sarkarda Amir Temur ham o'zining davlatida adolat o'rnatish uchun "Temur Tuzliklarini" yozadi. "Tuzuk" so'zining lug'aviy ma'nosi qonun-qoidalar to'plami, nizom, degan ma'nolarni anglatadi. Boshqacha aytganda, tuzuk — konstitutsiya (lotincha "Constitution" — tuzilish, tuzuk), ya'ni davlatning Asosiy qonuni. Shu ma'noda "Temur tuzuklari" Sharq va Osiyo mamlakatlari sivilizatsiyasiga xos alohida shakldagi konstitutsiyaviy hujjat xususiyatiga ega bo'lib, Markaziy Osiyo mintaqasi xalqlari taqdiriga shariat qonunlari bilan bir qatorda kuchli ta'sir o'tkazgan.

Atoqli rus olimi D.Logofet "Temur tuzuklari"ga Turkistonda Yevropadan 500 yillar oldin vujudga kelgan Konstitutsiyaviy kodeks, boshqacha aytganda, Amir Temur saltanatining Konstitutsiyasi, deb yuksak baho bergan³.

Temur tuzliklaridan quyidagi namunalar:

- "...butun mamlakatda buyruq, farmon berish ishlari podshohning o'zida bo'lishi lozimki, har ishda podshoh o'zi hukm chiqarsin, toki hech kim uning hukmiga aralashib, o'zgartira olmasin".
- "...podshohlik ishlarini tamoman boshqaga topshirib, erkni unga berib qo'ymasinki, dunyo xiyonatchi xotin singari, uning xushtori ko'pdir. Agar shunday qilar ekan, uning nafsi podsho bo'lishni tilab, saltanat taxtini o'zi egallashga kirishadi. Chunonchi, Sulton Mahmudga xiyonat qilgan vazirlar uni saltanat taxtidan tushirib, taxtga o'zlari ega bo'ldilar. SHunday bo'lgach, saltanat ishlarini ishonchli va mo'tabar bir necha kishiga bo'lib berish lozim. Shunda har biri o'z ishiga bog'lanib, saltanat taxtiga ko'z tika olmaydi".
- "O'g'rilar xususida buyurdimki, ular qayerda bo'lmasin, kim tutib olsa, Yoso (Chingizxon joriy etgan qonun) bo'yicha jazolansin. Kimki bironing molini zo'rlik qilib olgan bo'lsa, mazlumning molini zolimdan tortib olib, egasiga topshirsinlar. Agar kimda kim tish sindirsa, ko'zni ko'r qilsa, quloq va burun kessa, sharob ichsa, zino ishlar qilsa, devondagi shariat qozisi yoki ahdos qozisiga olib borib topshirsinlar. Shariatga oid ishlarni hal etishda islom qozisi hukm chiqarsin. Urf-odat ishlarini esa ahdos qozisi taftish qilib, so'ng menga yetkazsin".
- "Qaysi vazir g'iybat gaplarni aytsa, uydirma gaplarga quloq solsa, jabr-zulm qilsa, o'ziga yoqmagani kishilarni yo'qotish payiga tushsa, uni vazirlikdan tushirish lozim. Nasliy-u zoti yomon, hasadchi, kina-kek saqlovchi, qora ko'ngil kishilarga zinhor vazirlik (lavozimi) berilmasin. Buzuq, qora ko'ngilli, zoti past odam vazirlik qilsa, davlat-u saltanat tez orada qulaydi".⁴

Yuqoridagilardan ko'rinadiki mustaqillikning dastlabki yillarida Konstitutsiyamiz loyihasining muhokamasi davrida asosiy qonunimizni "Tuzuklar" deb atash tavsiya etilgani ham bejiz emas.⁵

2 To'xtasinov Mira'zamAbdujabborov'g'li /"XAMMURAPI QONUNLARI": <https://doi.org/10.37547/iqro-volume04-issue01-44>

3 "TEMUR TUZUKLARI": ODILLIK VA ADOLAT, HUQUQ VA MA'NAVIYAT./ <https://www.bukhari.uz/?p=21236&lang=oz>

4 Temur tuzuklari/ <https://forum.ziyouz.com/index.php?topic=1517.0>

5 "TEMUR TUZUKLARI": ODILLIK VA ADOLAT, HUQUQ VA MA'NAVIYAT./ <https://www.bukhari.uz/?p=21236&lang=oz>

Mustaqillikka erishganimizning ilk yillarida birinchi prezidentimiz Islom Karimov Abdugʻaniyevich tashabbusi bilan dast avval "**Mustaqillik deklaratsiyasi**" (1990-yil 20-iyun) — Oʻzbekiston SSR Oliy Sovetining 2-sessiyasida qabul qilindi.⁶

Mustaqillik deklaratsiyasida quyidagilar bayon etilgan:

1. Oʻzbekiston SSRning demokratik davlat mustaqilligi respublikaning oʻz hududida barcha tarkibiy qismlarida va barcha tashqi munosabatlardagi tanho hokimligidir.
2. Oʻzbekiston SSRning davlat hududi chegarasi daxlsiz va bu hudud xalqning muhokamasiga qoʻyilmay turib oʻzgartirilishi mumkin emas.
3. Oʻzbekiston SSRda davlat hokimiyati uning hududiga kiradigan barcha tarkibiy va boʻlinmas qismlari ustidan amalga oshiriladi va shu hududda yashaydigan aholiga taalluqlidir.
4. SSSR Oliy Soveti qabul qiladigan qarorlar Oʻzbekiston SSR Konstitutsiyasiga muvofiq Oʻzbekiston SSR Oliy Soveti tomonidan tasdiqlanganidan keyingina Oʻzbekiston SSR hududida kuchga ega boʻladi.
5. Oʻzbekiston SSR davlat hokimiyati vakolatiga Oʻzbekiston SSR ichki va tashqi siyosatiga tegishli barcha masalalar kiradi.
6. Oʻzbekiston SSR xalqaro huquqning asosiy prinsiplarini tan oladi va hurmat qiladi.
7. Oʻzbekiston SSR ittifoqdosh respublikalar va boshqa davlatlar bilan oʻzining siyosiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa munosabatlarini shartnomalar asosida belgilaydi va amalga oshiradi.
8. Oʻzbekiston SSR oʻzining taraqqiyot yoʻlini, oʻz nomini belgilaydi va davlat belgilarini (gerb, bayroq, madhiya) oʻzi taʼsis etadi.
9. Qoraqalpogʻiston Muxtor Sovet Sotsialistik Respublikasi mustaqilligini Muxtor Respublika Konstitutsiyasi taʼmin etadi.

Oʻzbekiston SSR uning Asosiy Qonuni va Oʻzbekiston SSR Konstitutsiyasi asosida Qoraqalpogʻiston MSSR manfaatlarini himoya qiladi.

10. Oʻzbekiston SSRning qonun chiqaruvchi hokimiyati Oʻzbekiston SSR davlat mustaqilligini amalga oshirish uchun zarur boʻlgan qonunlarni ishlab chiqadi. Oʻzbekiston SSRning siyosiy va iqtisodiy sistemalari tarkibini va qurilishini belgilaydi.
11. Oʻzbekiston SSR Oliy Soveti umumxalq muhokamasi asosida demokratik huquqiy davlat tuzishga qaror qilganini bildiradi, Oʻzbekiston SSRda yashayotgan barcha millat va elatlarning qonuniy siyosiy, iqtisodiy, etnik, madaniy huquqlariga hamda ona tillari rivojlantirilishiga kafillik beradi.
12. Ushbu Deklaratsiya Oʻzbekiston SSRning yangi Konstitutsiyasini hamda yangi ittifoq shartnomasini ishlab chiqish uchun asosdir.⁷

Uzoq bahs muzokaralardan soʻng asosiy qomusimiz konstitutsiyamiz 1992-yil 8-dekabrda XII chaqiriq Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI sessiyasida qabul qilindi.⁸

Uzoq bahs muzokaralardan soʻng asosiy qomusimiz konstitutsiyamiz 1992-yil 8-dekabrda XII chaqiriq Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI sessiyasida qabul qilindi. Unda 6 boʻlim, 26 bob, 128 moddadan iborat boʻlib, unda mamlakatimizning huquqiy, demokratik jihatdan rivojlantirishning asosiy prinsiplari belgilandi. Mana qariyb konstitutsiya qabul qilinganligiga ham qariyb 31 yil boʻldi, shu vaqt ichida dunyoda turli xil voqea va hodisalar roʻy berdi. Misol

⁶ https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_SSR_Mustaqillik_deklaratsiyasi

1. ⁷ OʻzME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

⁸ <https://www.standart.uz/news/view?id=1720>

uchun 2001-yilda AQShda sodir bo'lgan terakt⁹ shuni ko'rsatdiki, harfsizlikni yanada kuchaytirishni, 2008-yildagi jahon xalqaro inqirozi¹⁰ esa bank -moliya tizimida islohotlar qilish kerakligini, 2019-yildagi pandemiyaning boshlanishi, 11 va dunyodagi siyosiy vaziyat qonunlarni isloh qilish nechog'ililik muhim ekanligini yana bir bor ko'rsatib berdi.

Yangi O'zbekistonning konstitutsiyasi 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilindi.¹²

Unda jamiyatda anchadan buyon yechimini kutayotgan masalaning yechimini aniq va lo'nda qilib ko'rsatib qo'yildi. Misol sifatida o'qituvchilar sha'ni qadr-qimmatini shu kungacha yetarli darajada himoya qilinmagan edi yangi tahrirdagi konstitutsiyamizda bu bo'yicha qonunlar qabul qilindi. Jumladan, ular quyidagilar:

- O'zbekiston Respublikasida o'qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog'lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma'naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e'tirof etiladi.

- Davlat o'qituvchilarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qiladi.¹³

Kundan kunga xalq dardini qo'rqmasdan ko'tarib chiqib, uchinchi hokimiyat darajasiga ko'tarilayotgan ommaviy axborot vositalari xodimlariga tazyiq kuchayib ketishi fonida quyidagi qonunning qabul qilinishi ayni muddao bo'ldi.

- Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ish olib boradilar. Davlat ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinligini, ularning axborotni izlash, olish, undan foydalanish va uni tarqatishga bo'lgan huquqlari amalga oshirilishini kafolatlaydi. Ommaviy axborot vositalari o'zi taqdim etadigan axborotning ishonchliligi uchun javobgardir.

- Senzuraga yo'l qo'yilmaydi. Ommaviy axborot vositalarining faoliyatiga to'sqinlik qilish yoki aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.¹⁴

O'zbekistonda 2022-yildan e'tiboran qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini xususiyashtirish boshlangan¹⁵. Shu bilan deyarli bir vaqtda, o'tgan yili e'lon qilingan yangi konstitutsiya loyihasining birlamchi versiyasida qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni xususiyashtirish mumkin emasligiga iddao qilgan edi. Yakuniy talqindan bunday cheklov olib tashlandi va yerni xususiyashtirishga oid norma quyidagicha shaklga keltirildi:

9 September 11, 2001 attack on America: a record of the immediate impacts and reactions in the USA travel and tourism industry/[https://doi.org/10.1016/S0261-5177\(02\)00029-8](https://doi.org/10.1016/S0261-5177(02)00029-8)

10 Time for a visible hand/lessons from the 2008 World Financial Crisis

11 Coronavirus disease 2019 and transplantation: a view from the inside

12 <https://lex.uz/docs/-6445145>

13 LEX.uz O'zbekiston qonunchiligi

14 LEX.uz O'zbekiston qonunchiligi

15 "QISHLOQ XO'JALIGIGA MO'LJALLANMAGAN YER UCHASTKALARINI XUSUSIYLASHTIRISH TO'G'RISIDA"GI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNINI AMALGA OSHIRISH CHORA-TADBIRLARI HAQIDA/ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 14.02.2022 yildagi 71-son

Yer qonunda nazarda tutilgan hamda undan oqilona foydalanishni va uni umummilliy boylik sifatida muhofaza qilishni ta'minlovchi shartlar asosida va tartibda xususiy mulk bo'lishi mumkin.¹⁶

Oldinlari davlat va insonlar o'rtasida ayrim qonunlarda ziddiyatlar yuzaga kelardi, bu kabi ziddiyatlarni bartaraf etish uchun quyidagi qonun qabul qilindi.

- Inson bilan davlat organlarining o'zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi¹⁷.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, bugungi kunda hech bir narsa shunchaki paydo bo'lib qolmagan shu asnoda konstitutsiyada ham yuqorida biz bu haqida alohida va batafsil to'xtalib o'tdik. Yangii tahrirdagi konstitutsiyachinakamm yurtimizda yashayotgan har bir fuqaroning dardini ko'rsatib bera olgan qonunlar to'plami Konstitutsiya bo'la oldi. Yangi O'zbekiston taraqqiyotning yagi bir bosqichiga chiqdi, bu esa o'z navbatida konstitutsion islohotlarni talab etardi va bu islohotlarning xalqning xohish irodasi bilan adolatli bo'lib o'tdi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi - O'zbekiston, 2023
2. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish to'g'risida"gi o'zbekiston respublikasi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida/ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 14.02.2022 yildagi 71-son
3. Karimova O. Huquqni o'qitish metodikasi.- TBPU. 2010
4. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonun Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi <http://web-journal.ru/> 176 9-son_1-to'plam_Noyabr-2023 2019.09.14
5. Islomov Z.M. Fuqarolik jamiyati: kecha, bugun, ertaga. -T .: TDYuI, 2002, -87b
6. To'xtasinov Mira'zamAbdujabborog'li /"XAMMURAPI QONUNLARI": <https://doi.org/10.37547/iqro-volume04-issue01-44>

Elektron manbalar:

1. LEX.uz O'zbekiston qonunchiligi
2. September 11, 2001 attack on America: a record of the immediate impacts and reactions in the USA travel and tourism industry/[https://doi.org/10.1016/S0261-5177\(02\)00029-8](https://doi.org/10.1016/S0261-5177(02)00029-8)
3. "TEMUR TUZUKLARI": ODILLIK VA ADOLAT, HUQUQ VA MA'NAVIYAT./ <https://www.bukhari.uz/?p=21236&lang=oz>

¹⁶ LEX.uz O'zbekiston qonunchiligi

¹⁷ LEX.uz O'zbekiston qonunchiligi